

“ABDULLAJON” MARSİYASIDA RITM MUAMMOSI

Begiyeva Shaxnoza Uchqunovna

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada nasriy va nazmiy nutqni bir-biridan ajratib turuvchi unsur - ritm haqida fikr yuritiladi. Ma'lumki, she'riy nutq ritmi maxsus hosil qilinib, muayyan bir o'lchov asosida tartibga solinadi. Shuningdek, she'rni tashkil qiluvchi ritmning maxsus o'lchov birliklari bo'lib, bular bo'g'in, strofa, band, turoq, misra kabi nomlar bilan yuritiladi. Mana shunday ritmik birliklarning qo'llanilish masalasi Rauf Parfining "Abdullajon" marsiyasi misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: she'riy nutq, ritm, marsiya, nutqiy bo'laklar, bo'g'in, turoq, band.

Ma'lumki, she'r — shoirning qalb oynasidir. U orqali shoir o'zi ko'rganlari va ko'rishni istaganlarini sherxonga yetkazadi. Bu oynada gohi qalbning achchiq azoblari, gohida ilkis tuyg'ular — muhabbat, mehr, shodlik aks etadi. Hissiyotlarning qog'ozga ko'chishi bilan tuyg'ularning yana bir yurakka to'kilishi shoirning mahoratidan darakdir. o'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov “Shoir-u sher-u shuur” asarida yozganidek, “She'riyat — shoir va o'quvchi o'rtasidagi dil suhbat. Shoir uchun bu suhbat yurakni borlig'i bilan ochmak, o'quvchi uchun bu yurak zarblarini anglamakdir” [1;83]. She'riy jumalarning jarangi va hamohangligi badiiyat mezonlariga borib taqaladi. Jumladan, she'riyatda musiqiylikni yuzaga keltiruvchi bir qancha “texnik” unsurlar mavjud. Bunday unsurlar 2 guruhga ajratiladi:

a) asosiy unsurlar: *ritm (zarb), vazn, qofiya va band;*

b) yordamchi unsurlar: *intonatsiya, poetik sintaksis, she'r san'atlari, ko'chimlar...*

“Demak, shoir bo'lish uchun ham, she'rni anglovchi iste'dod egasi bo'lmoq uchun ham, dastavval she'riyatning qonun-qoidalarini, uning oddiy texnikasini bilish, uni chuqurroq o'rganish zarurati mavjud. Qalbdagi tovlanishlarning insoniy qiyosini ravshanlashtirishda, musiqiyiligini ta'minlashda, qismat tarixini so'z vositasida jonlantirishda 3 ta asos muhim ahamiyat kasb etadi. Bular ritm (Ritmika), qofiya (Ilmi qofiya), band (Strofika)” [4;178]. Ushbu bobda shoir Rauf Parfining “Abdullajon” marsiyasi ritmi, poetik sintaksis masalalari hamda badiiy san'atlarni qo'llash mahorati tahlil etilgan. Asarning ritm muammosi o'zgacha uslubga ega bolgan shoirning fenomenini hamda marsiyaning qayg'u-iztirobini ko'rsatib berishga xizmat qilgan.

She'riy nutqning emotsional xususiyati hamda musiqiy jarangini taminlovchi unsurlardan biri ritmdir. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov ta'biri bilan aytganda, she'riy nutqning intonatsiya va musiqiyligi ritmik bo'laklar va ritmik vositalar, o'ziga xos fonetik tuzilish hamda turli sintaktik usullar yordamida vujudga keladi. She'riy nutq ritmi maxsus hosil qilingan va muayyan o'lchov asosida tartibga solingan boladi.

She'riy ritmning o'lovch birliklari o'zaro qism-butun aloqasidagi nutqiy bo'laklar (bo'g'in, turoq, misra, band) bo'lib, ular ritmik bo'laklar yoki ritmik birliklar deb yuritiladi.

Ritm (yun. *rhythmos* — vazndosh, ohangdosh) — she'rning muhim xususiyatlaridan biri bolib, she'r misralaridagi bir-biriga teng yoxud noizchil takrorlanib kelishidan paydo bo'ladigan ohangdoshlik. Bu ohangdoshlikni she'r o'qilayotgan paytdagina his qilish mumkin. She'r ritmi odatda, uning ko'pgina unsurlari bilan bog'liq holda harakat qiladi. Barmoq tizimidagi she'rda ritm misralaridagi bo'g'inlarning miqdor jihatidan muayyan tartibda takrorlanishi, turoqlarining miqdori va tartibi, bandlarning bir xilda takrorlanishi (qofiya, radif, naqarot) bilan birgalikda o'z vazifasini o'taydi. Bu o'rinda shoir Rauf Parfining barmoq vaznida yozilgan marsiyasidan misol olib ko'raylik:

Shamol kabi / uchib o'tgaysan, [4+5]

Shovullaysan / boshimda har zum. [4+5]

Aytilmagan / qo'shiq aytgaysan, [4+5]

Yaproqlarni / tashlaysan uzib. [4+5]

Yuqoridagi bandning har bir misrasida 9 bo'g'in bo'lib, ular 4+5 sxemasi bilan turoqlangan. Odatda, barmoq vaznida yozilgan she'rlar boshdan oxirigacha bir xil turoq sxemasida bo'g'inlanadi. Ammo shoirning "Abdullajon" marsiyasida bu an'anadan chekinilganligini kuzatishimiz mumkin. Marsiya ritmida bir tekis va izchil takror bazi bandlardagina uchraydi. "Ritmni vujudga keltiruvchi asosiy unsurlardan biri vazndir. Vazn esa bo'g'in, hiyo, turoq, turkum kabi unsurlardan paydo bo'ladi. Bo'g'in va uning rang-barang ko'rinishlarisiz she'r misralarini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Chunki she'rning qalbi bo'lmish musiqiylik va ritmni vujudga keltirishda eng faol ishtirok etuvchi unsur — bo'g'indir [3;198].

Bo'g'in — bir nafas zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar birikmasi, so'zning mustaqil talaffuz qilinishi mumkin bo'lgan bo'lagi. "Abdullajon" marsiyasida aynan qat'iy bo'g'indan foydalanilmagan. Bo'g'inlar miqdorining lirik qahramon hissiyotlari to'liqini ifodalash maqsadida turlichaligi kuzatiladi. Masalan, 3 sonetdan iborat deya tahlil etiluvchi marsiyaning 1-soneti boshlanmasidagi tortikda 8,7, 8,7 bogin yetakchilik qiladi:

Qushlar, qushlar, qator-qator, 8

Qushlar uyga qaytingiz. 7

Abdullajon qaytmas... zinhor, 8

Yor-do'stlarga aytingiz. 7

2-sonetda esa bu kabi bo'g'in turfaligidan chekinilgan:

Shamol kabi uchib o'tgaysan, 9

Shovullaysan boshimda har zum. 9

Aytilmagan qo'shiq aytgaysan, 9

Yaproqlarni tashlaysan uzib. 9

3-sonet ham xuddi shu kabi 9 bo‘g‘inli bandlardan tashkil topgan.

“Barmoq tizimida bo‘g‘inlar turoqlarni, turoqlar turkumlarni, turkum vaznni, vazn esa badiiylik — musiqiylikni, musiqiylik poetik g‘oyani vujudga keltiradi. She'r unsurlari bir-birlari bilan uzviy bog‘liqlikda, bir-biri bilan mustahkam aloqaga kirishgandagina vazifasini o‘tay oladi [3;199].

Barmoq sheriy tizimida bo‘g‘inlarning muayyan guruhlariga ajralishi oqibatida paydo boladigan ritmik bo‘lak mavjud. Adabiyotshunoslikda bu hodisa *turoq* deb ataladi. Misradagi bo‘g‘inlar guruhlariga ajralib turoqlarni vujudga keltirsa, misra yoki baytda turoqlarning miqdori va uyushuv tartibidan turkum yaratiladi. Masalan:

G‘am-li uy-da / qirq kun yo-nur sham, = 9 bogin [4+5]

Sen u-yim-da / yo-nur-san a-bad. = 9 bogin [2+4+3]

Qay-ta / tu-g‘i-la-dir / dunyo ham, = 9 bogin [4+5]

Sen dun-yo-ga / kel-may-san fa-qat. = 9 bogin

Ushbu parchadagi har bir misrada 9 tadan bo‘g‘in bo‘lib, ular 1, 2 va 4- qatorlarda ikkitadan, 3-qatorda esa 3 tadan guruhga ajraladi: birinchi guruh 4 bo‘g‘in va ikkinchi guruh 5 bo‘g‘in, 3-qatorda esa birinchi guruh 2, ikkinchisi 4, uchinchisi 3 bo‘g‘indan iborat. Bu guruhlanish turoqlardir. Misralardagi turoqlarning miqdori (2, 3) va uyushuv tartibi (4+5=9, 2+4+3=9) — *turkum*dir. Sher 9 lik turkumda yozilgan. Ammo marsiyaning 8+7 turkumlari aralash holda yozilgan misralari ham mavjud:

Yo‘l-lar u-zun / yo‘l-lar u-zun, / [4+4=8]

Kun-lar ham ko‘p / cho‘zil-di. / [4+3=7]

Qon-li yosh-lar / to‘k-di ko‘zim, / [4+4=8]

Ji-gar bag‘-rim / e-zil-di. / [4+3=7]

Yirikroq poetik asarda misralardagi bo‘g‘inlarning turoqlanish tartibi muayyan qonuniyat asosida o‘zgarib ham turadi. “Abdullajon” marsiyasida bunga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bu paytda misralar 8, 7 bo‘g‘indan tarkib topgan. Bo‘g‘inlar esa (har bir misrada) 2 guruhga ajralgan. Sxemasi 4+4=8. Ikkinchi va to‘rtinchi misralar 4+3=7 sxemasi asosida yaratilgan. “She'r misralaridagi bo‘g‘inlarning shu xilda guruhlariga ajralishi — bo‘g‘inlarning turoqlanishi deb yuritiladi. She'r misralaridagi bo‘g‘inlarni turoqlarga ajratishdan maqsad shuki, shu turoqlar qo‘yiladigan joyda pauza (tinish) bo‘ladi — she'r oq‘ilayotgan paytda esa, albatta, pauzalarga amal qilinadi” [3;200]. Yuqoridagi band misralari ikkiga bo‘lib o‘qiladi, shu tariqa she'rning ohangi — ritmi paydo bo‘ladi, musiqiylik yuzaga chiqadi.

Marsiyasida turoqlanishning quyidagi ko‘rinishlarini ham uchramiz.

Sen yo-nib / ke-tar-san / yo-dim-da, / 3+3+3=9

Bi-ron shar-pa / to-vush e-shit-sam. / 4+5=9

Go‘yo ma-na / ho-zir ol-dim-ga, / 4+5=9

O-ti-lib / ki-rar-san / e-shik-dan. / 3+3+3=9

Yoki:

Do-im bir-ga / va do-im ju-do, / 4+5=9

Bag '-ri-dan / be-cho-ra / ko 'z-la-rim. / 3+3+3=9

Bun-cha xa-sis / bo 'l-ma-sa dun-yo, / 4+5=9

Top-tay-di / o '-zi-ning / iz-la-rin. / 3+3+3=9

Yuqoridagi misralarning ritmiga e'tibor qilsak, bo'g'inlarning soni jihatdan bir turkumga kirgan misralarning ritmida bir-biridan farq borligini sezamiz. Bir turkumga mansub ikki parchaning ritmik holatidan 2 xil ohang yuzaga kelishi — bo'g'inlarning 2 xil tartibda 4+5=9 va 3+3+3=9 guruhlanib kelishidir. Turoqlanish 2 xil bo'lsa-da mazmun va ohangdorlik bir-biriga mutanosibdir. “Ko'rinadiki, turoqlanish she'rdagi his va fikrning uygunligidan, mazmundan kelib chiqadi. She'r birdaniga (mazmuni va shakli bilan) yaxlit tug'iladi, vazni — ozligi bilan dunyoga keladi. Har bir turoqdan so'ng tabiiy ravishda kelib chiquvchi izchil pauza (bilinar darajadagi sukut) ohangdorlikni, she'rga mos ritmikani voqelantiradi” [4;179].

Bosh turoq. Misradagi bo'g'inlarning turoqlanish jarayonida oddiy turoq (kichik ritmik pauza)lardan farqliroq bosh turoq (katta ritmik pauza) ham bo'ladi. Odatda, bosh turoq misra yoki baytning oxirida keladi, ba'zan misra ichida kelishi ham mumkin.

Na-fas ol-may / ul ux-lay-di, //

Ko 'k-ra-gi-da / ong qo '-li. //

Yil yig '-lay-di, / el yig '-lay-di, //

Yig '-lar o '-zi / ham o '-lim. //

Oddiy turoq bir drop (/) va boshqa turoq ikki drop (//) bilan belgilansa, (she'rni oqish jarayonida oddiy turoqdan so'ng kamroq tinish — kichik ritmik pauza va bosh turoqdan keyin ko'proq tinish — katta ritmik pauza bo'ladi), yuqoridagi she'riy parchaning har bir misrasida bir bosh turoq va bir oddiy turoq bor. Birinchi turoq oddiy turoq, misra so'ngida kelgan ikkinchi turoq bosh turoqdir. Mana shu turoqlar she'r ritmi — ohangini vujudga keltirgan.

Turkum. “Muayyan misraga kirgan va boshqa misralarda (she'r oxirigacha) ham takrorlanib, ritmni yuzaga keltirgan bo'g'inlar soniga asoslangan o'lchov — turkumdir” [4;182]. Masalan, 8 bo'g'inli misra asos bo'lgan she'r **sakkizlik turkum** deb yuritiladi:

O-him me-ning / buz-gay sa-mo-ni, / =9 bo'g'in

Na-fa-sim / ay-la-nur / qu-yun-ga. / =9 bo'g'in

So-vuq yer-ga / qo 'y-dik-mi se-ni, / =9 bo'g'in

Ke-rak-mi-ding / shun-cha-lar un-ga? / =9 bo'g'in

“Abdullajon” marsiyasining 3-sonetidan olingan yuqoridagi misralardan ma'lum bo'ladiki, ushbu sonet “to'qqizlik turkum”da yozilgan. o'zbek she'riyatida bir necha turkum (3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17 lik)lar mavjud. Umuman, yuqorida qayd etilgan turkumlardan, xususan, yettilik, to'qqizlik va o'n birlik

turkumlar she'riyatimizda keng qo'llanilmoqda" [3;205]. She'r qaysi turkumda yozilgan bo'lsa vaznning nomi ham shu turkumga nisbat beriladi. Shunga ko'ra "Abdullajon" marsiyasining 2 va 3-sonetlari to'qqizlik turkumda yozilgan va uning vazni "to'qqiz bo'g'inli barmoq vazni" deb yuritiladi. Shoir o'z kechinmalariga mos holda muayyan vazn va turoq tartibidan chetga chiqaveradi. Marsiyada har bir misra shoirning qayg'ulari, boshiga tushgan musibatning ayanchliligini ifodalash barobarida turlicha turoqlanadi. Ritmni 1-sonetda 3+ 4 bo'g'inli turoqlar, 2 va 3-sonetlarda 4+5 bo'g'inli turoqlar va yettilik, sakkizlik va to'qqizlik turkumlarning takrorlanishi misralarni uyushtirgan. Turoqlarning turli o'lchovdaligi va turlicha guruhlanishi, har bir sonetda turli turkumlar qo'llanilganligi sher ritmiga putur yetkazmagan. Aksincha, ta'sirchanlikni oshirib, tuyg'ularni jumbushga keltirishga xizmat qilgan. She'r ritmini tashkil etishda yordam beruvchi yana bir unsur borki, u lirikada vazn deb ataladi. "Vazn (ar. o'lchov tarozi) — she'r me'yori bo'lib, nazmiy nutqning asosiy unsuri hisoblanadi. Vazn she'r tizimi qonuniyatiga asoslangan holda aniq bir she'rning o'lchovini bildiradi. Vazn takrorlanishlarning konkret she'rdagi tartibini belgilayotgan o'lchovni bildiradi" [2;73]. Masalan:

Na-hot, do's-tim /shu qa-br sen-mi, // 4+5=9

Sen-mi yo-zil / ma-gan shu ki-tob? // 4+5=9

Ko'-mi-lar-mi / hech qa-chon sev-gi, // 4+5=9

Men ja-vob / is-tay-man, ja-vob. // 3+5=8

Sen tark et-ding/ yo-rug' o-lam-ni, // 4+5=9

Sen bu-tun-lay / tark et-ding yo-xud. // 4+5=9

Ting-la-may-san / me-ning no-lam-ni, // 4+5=9

Ting-la-may-san / cho-ra-siz o-hu. // 4+5=9

Bu she'rning birinchi misrasidagi bo'g'inlarning miqdori (9 bo'g'in) va turoqlarining soni (ikki turoq) hamda tartibi (4+5) boshqa misralarda aynan takrorlanib, she'r vazni (4+5=9)ni vujudga keltirgan. Demak, ushbu misra 4+5=9 sxemali barmoq vaznida yozilgan. Marsiyaning barcha qismlarini ham aynan shu sxemali vaznda yozilgan deb bo'lmaydi. Ma'lumki, barmoq tizimi vaznlarga boydir. Bu tizimdagi vaznlar tuzilishiga ko'ra *sodda, qo'shma, erkin* vaznlarga bo'linadi. Ayni shu jihatdan Rauf Parfining "Abdullajon" marsiyasi 1-soneti qo'shma vaznda yozilgan bo'lib, 3 sonetdan iborat ushbu marsiyada 9 turkumlik sodda vazndan ham foydalanilgan. She'r ikki va undan ortiq turkumda yozilgan bo'lsa, uning birinchi misrasining bo'g'inlari soni bir xil va ikkinchi misrasidagi bo'g'inlar boshqa xil bo'lishi — *qo'shma vazn* tushunchasini ifodalaydi. Ular muayyan qonuniyat (tartib) asosida butun she'r davomida takrorlanib turadi. She'r tuzilishining bu usuli qo'shma vaznni vujudga keltiradi. "Qo'shma vaznning o'ziga xosligi shundaki, she'rda bir xil vaznli misralarning takroridan emas, balki ikki va undan ortiq vaznli misralarning muayyan

qonuniyat asosidagi takroridan ritm kelib chiqadi. Qo'shma vazn she'rning ritmik imkoniyatlarini oshiradigan vositalardan biridir" [3;210]. Masalan:

Yo'l-lar u-zun, / yo'l-lar u-zun, // 4+4=8

Kun-lar ham kop / cho'-zil-di. // 4+3=7

Qon-li yosh-lar / to'k-di ko'-zim, // 4+4=8

Ji-gar- bag'-rim / e-zil-di. // 4+3=7

Yoki:

Qush-lar, qush-lar / qa-tor-qa-tor, // 4+4=8

Qush-lar, uy-ga / qay-ti-ngiz. // 4+3=7

Ab-dul-la-jon / qayt-mas zin-hor, // 4+4=8

Yor -do 'st-lar-ga/ ay-ti-ngiz. // 4+3=7

Ritmni yuzaga keltiruvchi unsurlardan yana biri band bolib, "band (strofa) — she'rning alohida qofiyalarning tartibiga ega bolgan yirik ritmik bo'lagidir. U nisbiy tugal fikr yoki hissiyotni ifodalaydi. Band qofiya va intonatsiya bilan birikkan (uyushgan) misralarning muayyan tartib asosida takrorlanishi. Bandda asar mazmuniga taalluqli g'oya va hissiyot butunlay tugallanmasdan o'zidan keyingi yoki oldingi bandning boshi yoki davomi sifatida ham maydonga chiqadi. Fikr va tuyg'u bir banddan ikkinchi bandga ko'chadi. Shu tariqa she'rda mavzu, g'oya va ruhiy holat birligidan tashqari mantiqiy va sintaktik birlik ham paydo boladi" [3;214]. Tadqiqotlarga kora, band turlari ko'proq undagi misralar sonidan kelib chiqib belgilangan: ikkilik (masnaviy, band, distix), uchlik (musallas, tertset), to'rtlik (murabba, katren) va hokazo.

Hozirgi o'zbek she'riyatida sher asosan, bir tekis band usulida, ya'ni she'rning birinchi bandi qanday shaklda bolsa, boshqalari ham shu usulda yoziladi. Biroq Rauf Parfining "Abdullajon" marsiyasi bundan mustasnodir. Marsiya 4 misralik band usulida yozilgan. She'r 3 sonetdan iborat. Har bir sonet 6 ta banddan jami 18 band bo'lib, ularning har biri to'rt misradan tuzilgan. Bandning ichki qofiya tartibi (a+b+a+b) ham, misralardagi bo'g'inlar soni (7, 8, 9 bo'g'in) turoqlar tartibi (4+5, 3+3+3, 2+4+3) turlichadir. Masalan:

Birinchi band

Qushlar, qushlar, qator-qator, =a =4+4=8

Qushlar, uyga qaytingiz. =b =4+3=7

Abdullajon qaytmas ...zinhor, =a =4+4=8

Yor -dostlarga aytingiz. =b =4+3=7

So'nggi qism bandi

Sen tark etding yorug' olamni, =a =4+5=9

Sen butunlay tark etding, yohu. =b =4+5=9

Tinglamaysan, mening nolamni, =a =4+5=9

Tinglamaysan, tinglamaysan -ku... =b =4+5=9

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, “Abdullajon” marsiyasi murabba’ shaklida yozilgan. Malumki, murabba’ (arabcha to‘rtlik) — o‘zaro qofiyalangan to‘rt misralik band usulida yozilgan she‘rdir. She‘r tuzilishining bu usuli hozirgi o‘zbek lirikasida keng qo‘llanilib, klassikadagi qofiyalanish qonuniyati (a, a, a, a va a, a, a, b) o‘zgargan to‘rtlik bandlarda qofiyalanishning turli ko‘rinishlari paydo bo‘lgan. “Abdullajon” marsiyasi ham qofiyalanish tartibi xilma-xil bo‘lgan to‘rtlik band usulida yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov E. Shoir-u she‘r-u shuur.
2. Qur'onov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T.:
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.- Toshkent.
4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.